



AVAZOVA Shoirra

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Ijtimoiy fanlar va huquq kafedrası dotsenti v.b.,
yuridik fanlar nomzodi*

ISLOM HUQUQIDA FIQHIY QOIDALARNING ISHLAB CHIQLISHI VA ULARNING AHAMIYATI

РАЗРАБОТКА И ЗНАЧЕНИЕ ФИКХСКИХ ПРАВИЛ В ИСЛАМСКОМ ПРАВЕ

DEVELOPMENT AND IMPORTANCE OF FIQH RULES IN ISLAMIC LAW

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom huquqi tizimida fiqhiy qoidalarining ahamiyati, ishlab chiqilishi, huquqiy munosabatlarni tartibga solishda tutgan o'rni, fiqhiy qoidalarini asoslab, tartibga solgan yirik faqih olimlarning bu sohadagi asarlari o'rganilgan. Fiqhiy qoidalarda nazarda odat huquqining ahamiyati yoritib berilgan, shuningdek, fiqhiy qoidalarining zamonaviy protsessual qonunchilik bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Islom huquqi, faqih, fiqhiy qoida, zobit qoida, xilof ilmi, odat huquqi.

Аннотация: В этой статье рассмотрены значение, разработка и роль фикхских правил в исламском праве, а также их влияние на регулирование правовых отношений. Анализируются труды выдающихся юристов, которые вносили вклад в обоснование и систематизацию фикхских правил. Особое внимание уделено роли обычного права в фикхе и проведен сравнительный анализ фикхских правил с современным процессуальным законодательством.

Ключевые слова: исламское право, правовед, фикхское правило, основополагающее правило, наука о разногласиях, обычное право.

Abstract: This article examines the significance, development and role of fiqh rules in the system of Islamic law, as well as their place in regulating legal relations. The works of outstanding legal scholars who substantiated and systematized fiqh rules are examined. The significance of customary law in fiqh rules is considered, and a comparative analysis of fiqh rules with modern procedural legislation is conducted.

Keywords: Islamic law, jurist, fiqh rule, fundamental rule, science of disagreement, customary law.

KIRISH

Azaliy qadriyatlarimiz va ahloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan muqaddas dinimizni asrash va qadrlash har birimizning sharaflı burchimizdir. Islom – haqiqatni anglash demakdir, u odamzotni ezgu amallarni bajarishga undaydi, har birimizni yaxshilik va tinchlikka chorlaydi, haqiqiy inson bo'lishni o'rgatadi [2:30].

Bugungi tezlik bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davrida muqaddas islom dinining mohiyatini noto'g'ri talqin qilish, ularni soxtalashtirish yo'li bilan turli fitna va buzg'unchiliklar sodir etish holatlari kuzatilib turibdi. "Islom faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g'oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo'lish – bu O'zbekiston xalqiga mutlaqo to'g'ri kelmaydi". Bunday vaziyatda dinimizning sofligini saqlash, uning tinchlik va insonparvarlikdan iborat asl mohiyatini aholi, ayniqsa, yoshlarga yetkazish, xalqimizning boy diniy va ma'naviy merosini o'rganish borasida izlanishlar olib borish va targ'ib etish, shu yo'l orqali yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi bugungi kunimizning muhim vazifalaridan biridir.

ASOSIY QISM

Islom jahon dinlaridan biri sifatida asrlar davomida ko'pgina xalqlar ma'naviy dunyoqarashining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur iz qoldirganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi.

Islom dini bir vaqtning o'zida ham diniy, ham dunyoviy qudratni o'zida mujassamlashtirgan

bo'lib, yagona kitob imon e'tiqodni, odatlar va hatto huquqni ham belgilab bergan, shuningdek, yaratuvchining qat'iy irodasi ham yagona kitobda ifodalangan. Islom dini nafaqat e'tiqod sifatida balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida o'z ifodasini topgan, jumladan, jamiyatdagi turli xil munosabatlarni tartibga solib turgan mustaqil huquqiy madaniyatdir. Bu huquqiy madaniyat insoniyat rivojlanishining ulkan yutuqlaridan biri bo'lib, jahon huquqiy xaritasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ma'lumki, islom huquqi sunniylik oqimida dastlab to'rt asosiy mazhab, ya'ni hanafiy, shofeiy, hanbaliy va molikiy mazhabidagi ko'pgina faqihlar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida rivojlanib borgan. Lekin vaqt o'tishi bilan u yoki bu mazhablarga tegishli turli hukmlardan to'g'ri va haqqoniy qoidani aniqlab olish, hatto nufuzli qozi va muftiylar uchun ham mushkul edi. Shunday sharoitda islom huquqining umumiy nazariy asoslarini ishlab chiqish muhim masala bo'lib qoldi. Natijada huquqiy tartibotning umumiy qoidalari, ya'ni islom huquqining o'ziga xos «umumiy qismi» vujudga kelib, uning tarkibiy qismini boyitdi. Bu umumiy qoidalar ko'pchiligi mujtahidlar tomonidan islom huquqining barcha manbalarini va ulardan amaliyotdan foydalanish jarayonini o'rganib chiqqan holda yaratilgan qoidalaridir. Boshqacha aytganda, agar dastlab ulamolar Qur'on va sunnadagi diniy-ahloqiy tushunchalarni huquqiy ko'rinishdagi qoidalariga yo'naltirishga intilgan bo'lsalar, keyinchalik islom huquqining hayotga tatbiq etilishini yanada takomillashtirish maqsadida fatvolardan foydalangan holda ushbu huquqiy tizimning umumiy qoidalarini shakllantirdilar. Bundan yagona maqsad islom huquqining normalarini yaxshiroq tushunish va eng muhimi ma'lum ishni hal qilish uchun ko'plab qoidalar ichidan aniq hukmni aniqlab olish edi. Shuning uchun bu qoidalar barcha sharhlar uchun umumiy edi. Ularning paydo bo'lish payti islom huquqining nazariy va amaliy rivojlanishida eng dolzarb davr hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab, uning tarkibiy qismida jiddiy o'zgarishlar vujudga keldi, ya'ni ular islom huquqi tizimida muhim o'rin egallay boshladi. XIX asrda Usmoniylar imperiyasida qabul qilingan islom fuqarolik huquqiga oid normalarni o'zida mujassamlashtirgan, yevropacha kodeks shakliga ega bo'lgan huquqiy hujjat "Majallai ahkomi adliya"ning 2-100-moddalari ham fiqhiy qoidalariga bag'ishlangan [3:33].

Fiqhiy qoidalar asosan fiqhiy manbalardan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, ayrim fiqhiy qoidalar Qur'oni karim va hadisi sharifdan, ayrimlari ijmo va aqliy istidlol (dalillash) asosida yuzaga kelgan. Ba'zi bir fiqhiy qoidalar usul qoidalari asosida shakllangan [4:14].

Olimlarning fikricha, shariat normalari fiqhiy qoidalar va zobit qoidalariga bo'linadi. Fiqhiy qoidalar har xil sohalariga tegishli masalalarni o'zida qamrab oladigan tushuncha hisoblanadi, ya'ni, fiqhiy qoidalar fiqhiy hukmlar va masalalarning bir bo'lagi bo'lsa ham, umumiy mohiyatga ega bo'lib, turli hukmlar ustidan tatbiq etiladi, masalan, «Aniq narsa gumon bilan bekor qilinmaydi» qoidasi ibodat, fuqarolik, jinoyat, oila va boshqa sohalariga oid masalalar uchun umumiy qoida qisoblanadi.

Zobit qoida esa faqatgina o'sha qoidaning mazmunini tashkil qilgan masala bo'yicha hukm manbai hisoblanadi, ya'ni, fiqhiy masalalar ularga xos bo'lgan sarlavhalar ostida keladigan hukmlarni qamrab olgan [4:8]. Masalan, Imom at Termiziy rivoyat qilgan «Har qanday teri oshlansa pok bo'ladi» mazmunidagi hadisi sharifi faqat terining pokligiga tegishli qoidadir.

Faqihlar uzoq muddat davomida fiqhiy qoidalariga ahamiyat berib, ularni belgilab olishga harakat qilib kelganlar. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, ahli sunna faqihlari bu sohada birinchi qadamlarini qo'yg'yanlar. Ilk bor hanafiylardan Iroqlik faqih Abu Tohir Dabbos (hijriy IV asr) va undan keyin Abdulloh ibn Husayn ibn Dallol Karxiy (340 hij. qam. yilida v.e.) bu sohada asar yozganlar. Abu Tohir Dabbos hanafiy mazhabidagi fiqhiy qoidalarini 17 ta deb biladi. Abdulloh ibn Husayn ibn Dallol Karxiy esa o'zining mashhur «Usulul Karxiy» asarida fiqhiy qoidalarini 73 taga yetkazadi. Fiqhiy qoidalarini asoslab, tartibga solgan yana bir yirik faqih olim, hanafiy mazhabining salohiyatli vakillaridan biri Abu Zayd Ubaydullo ibn Umar ibn Iso al-Qoziy ad-Dabusiyy (978-1039) Buxoroning yetti mashhur qozisidan biri Hanafiy mazhabining salohiyatli vakili edi. U o'zining xilof ilmiga bag'ishlangan «Ta'sisun nazar» nomli asarida imomlar orasida fiqhiy masalalar bo'yicha kelib chiqqan ixtiloflarni 84 fiqhiy (umumiy) qoidaga asoslab, tartibga soladi [7:12].

A.Sh.Jo'zjoniy o'zining «Abu Zayd Dabusiyy – ilmul-xilofa (qiyosiy huquqshunoslik) fanining asoschisi» nomli maqolasida fiqhiy qoidalarning kelib chiqishi sabablari haqida quyidagilarni

ko'rishimiz mumkin: «Abu Zayd Dabusiyy o'zining «Ta'sisun nazar» kitobining muqaddimasida shunday deydi: «Fiqh o'rganuvchilari uchun xilof masalalarini o'rganish og'irligi, istinbot (hukmni asosiy manbadan chiqarib olish) mushkulligi, ushbu masalalarning haqiqiy manbalarini bilib olishda ularning bilimlari yetarli emasligi, shuningdek munozara chog'ida so'z o'rnini belgilashda xatoga yo'l qo'yishlarini nazarda tutgan holda ushbu kitobimda bir qator so'z (qoida) larni to'plashga harakat qildim. Ularni diqqat bilan o'qigan kishi munozara chog'ida ixtilofli o'rinlarni anglab olib, o'z diqqat va e'tiborini tartib bilan so'zlashga qaratadi hamda nizoli bahslarda asosiy masalani tashxis qilgan holda uni jonli dalillar bilan kuchaytirishga harakat qiladi. Shu yo'sinda xilof masalalarini o'rganish va ularga tegishli bo'lgan manbalarni anglab olish bilan boshqa masalalarni ular bilan qiyoslash (taqqoslash) imkoniga ega bo'ladi» [8:23]. Muallif kitobda bir masalani o'rta tashlab, turli faqihlarning fikrlariga asoslangan holda uni yechish yo'llarini sanab o'tadi. Shu yo'sinda manbadagi bir soddax iltilof turli maktablar orasida yuzlab bir-biridan farqli nuqtai nazarlar yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'lganligini ko'rsatadi [8:33]. Imom Dabusiyy mazkur ixtiloflarning har birini maxsus bobda tahlil qiladi. Har bir bobga tegishli bir qator usul (asosiy qoidalar)ni zikr etadi. Har bir qoidani amaliyotga tatbiq etish uchun uni turli misollar bilan izohlaydi hamda tomonlarning qarashlariga munosabat bildiradi va ixtiloflarni o'zaro taqqoslaydi. U kitob oxirida yuqoridagi sakkiz bobga tegishli bo'lmagan xilma-xil masalalar bo'yicha boshqa 12 ta asosiy qoidani zikr etib, har bir qoida doirasida ixtilofli masalalarni tadqiq etadi va barcha qoidalar soni 84 taga yetadi [8:33]. Dabusiyy o'z asarlari bilan ham Mashriq va ham Mag'rib musulmon olimlari asarlariga chuqur ta'sir o'tkazgan olim sifatida shuhrat qozongan.

Shofeiyy mazhabi bo'yicha birinchi marta Az ibn Abdussalom (660 hij. qam. yilida v. e.) fiqhiy qoidalar haqida «Qavoidul hukkom fi masalihil an'om» («Insonlarning manfaatlari yo'lidagi qozilarning qoidalari») nomli kitobini yozgan. Molikiy mazhabida esa fiqhiy qoidalar bag'ishlab Qarofiy (684 hij. qam. yilida v.e.) tomonidan «Al-furuq» («Farqlar») nomli asari, shuningdek, Sidqiy (756 hij. qam. yilida v.e.) tomonidan «Attoj» nomli asari yaratilgan.

Hanbaliy mazhabi vakillaridan bu sohada Ibni Rajab Hanbaliy (795 hij. qam. yilida v.e.) «Al-qavoidi fiqhiya» («Fiqhiy qoidalar») asarini yozgan [10:12].

Shia mazhabi bo'yicha ilk marta fiqhiy qoidalar haqida Muhammad ibn Makkiy tomonidan 786 hijriy qamariy yilida «Al-qavoidi va favoid» («qoidalar va foydalar») nomli kitobi yozilgan [6:15].

Birinchi marta fiqhiy qoidalar tasniflarga bo'lib, kengaytirgan va ularga bag'ishlab alohida katta kitob yozgan shaxs – Jaloliddin Abdurahmon as-Suyutiyy (1445-1505) bo'lib, shofeiyy mazhabining buyuk olimi edi. U turli fanlar bo'yicha yirik olim bo'lib, barcha arab mamlakatlari va Hindistonga safar qilgan, ko'p joylarda dars o'tgan. 40 yoshidan boshlab ta'rif va tasnif (kitob yozish) bilan shug'ullangan. Tafsir hadis, fiqh, tarix va arab tili bo'yicha 600 taga yaqin asar muallifi bo'lgan. Ular orasida fiqhiy qoidalar bag'ishlangan «al-Ashboh van-nazoir» nomli asari muhim o'rin egallaydi. Muallif o'zining ushbu asarida barcha fiqhiy qoidalar beshta qoida asosida kelib chiqadi degan fikrni keltiradi. Bu fiqhiy qoidalar quyidagilardir:

1. Ishlar maqsadga ko'radir.
2. Aniq bo'lgan narsalar gumon bilan bekor qilinmaydi.
3. Mashaqqat yengillikni keltirib chiqaradi.
4. Zarar bartaraf etiladi.
5. Odat-huquq manbai.

Fiqhiy qoidalar bag'ishlab asar yozgan yana bir buyuk faqih Zaynuddin ibn Nujaym (1562 yilda v.e.) edi. U Hanafiy mazhabining yirik faqihlaridan bo'lib, bir qator ilmiy asarlar yozgan [11:150]. Zaynuddin ibn Nujaym ham Abu Zayd Dabusiyy va Jaloliddin as-Suyutiylarning asarlarini o'rganib, ular asosida «al-Ashboh van-nazoir» nomli kitobini yozadi. U o'zining ushbu asarida hanafiy mazhabi bo'yicha fiqhiy qoidalar to'plagan va kengaytirgan. Shuningdek, ibn Nujaym ham Jaloliddin as-Suyutiyy tomonidan ishlangan fiqhiy qoidalar tasnifini qabul qilgan. «Majallai ahkomi adliyaning sharhlari»da aytilishicha «Majalla» muqaddimasining ikkinchi qismi (ya'ni 2-100-moddalar) Ibn Nujaym bilan uning izidan borgan faqihlar to'plagan fiqhiy qoidalardan iboratdir [12:11].

E'tiborli jihati shundaki, fiqhiy qoidalar o'z mohiyatiga ko'ra bugungi protsessual qonunchilikda aks etgan shaxs huquq va

erkinliklarining mustahkam kafolatini ta'minlovchi masalalarni ham qamrab olgan, masalan "Majallai ahkomi adliya"ning 8-moddasida "Aybsizlik asosiy qoidadir" fiqhiy qoidasi keltirilgan, ya'ni bir mahkamaning hukmi bilan ayblanmaguncha inson begunoh hisoblanadi. Bu qoida jahon hamjamiyati tomonidan inson huquqlarining poymol etilishini bartaraf etilishiga qaratilgan aybsizlik prezumtsiyasi printsidir. Unga ko'ra gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uning huquqbuzarlik sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlanmaguncha va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berish majburiyatiga ega emas. Bu qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida o'z ifodasini topgan, unga ko'ra "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi" [1:5].

"Majallai ahkomi adliya"da aks fiqhiy qoidalarining bir nechitasi odat huquqiga bag'ishlanadi. Ma'lumki, huquqiy odat – bu uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish turish qoidalaridir. Har qanday odat ham huquqiy odatga aylana olmaydi, balki ma'lum bir guruh, sinf yoki butun jamiyatning manfaatlariga javob bera oladigan va davlat tomonidan sanktsiyalangan odatgina huquqiy odat bo'lishi mumkin. Odat insoniyat jamiyati rivojlanishining ilk bosqichlaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy huquq manbai bo'lgan.

Huquq manbalari tizimida huquqiy odat jahon huquqiy xaritasining turli oilalarida har xil ahamiyat kasb etib kelgan. Bugungi kunda ham bir qator xorijiy mamlakatlarning huquq tizimida katta ahamiyatga ega.

Islom huquqi tizimida odatning tutgan o'rni haqida Abdulvahob Xalofning «Usulul fiqh» asarida quyidagilar keltiriladi: "Urf" deb kishilar o'rganib, odatlanib qolganliklariga asosan qilib kelayotgan ishlariga, so'zlariga aytiladi. Urfni odat deb ham yuritiladi. Ishdagi urfga misol: kishilar oldi-sotdi vaqtida, "oldim", "sotdim" degan

lafz-siyg'ani ishlatmay, pulni berib, narsani olib ketaveradilar. Aslida, ikki tomonning rizoligini ifoda etuvchi "oldim-sotdim" siyg'asi ishlatilishi lozim. Urf kishilarning har xil tabaqalari odatidir. Unga maxsus kishilar bo'lishi lozim emas.

Sahih urfga binoan shar'iy hukm chiqarishda, ya'ni, qozilar o'z ajrimlarida va mujtahidlar hukmlarida rioya etishlari lozim. Chunki xuddi ehtiyojlarining bir bo'lagidek odamlar odatlanib qolgan ishlar, agar ular shariat qonunlariga zid bo'lmasa, ularning maslahatlari hisoblanadi. Shuning uchun ulamolar «odat shar'iy hukmdir», deganlar. Binoan alayh, shariatda urfga e'tibor qilinadi, urf ila sobit bo'lgan hukm nass ila sobit bo'lgan hukmdan. Rasululloh alayhi vasallam: "Musulmonlarning ko'pchiligi nimani yaxshi deb bilsa, u Alloh huzurida ham yaxshidir" deganlar. Ammo fosid urfga rioya qilmaslik vojibdir. Chunki unga rioya qilishlik shar'iy dalilga qarshi turish yoki shar'iy hukmni bekor qilishdir. Agar kishilar haqqiga xiyonat qilish, ribo kabi biror noto'g'ri ishga odatlangan bo'lsalar, unga odamlar o'rgangan, odatlangan deb yo'l qo'yish mumkin emas. Bunday holda masalaga boshqa tomondan yondoshib hal qilinadi. Agar o'sha ish kishilar uchun g'oyat zarur bo'lsa, ya'ni, qilinmasa, hayotiy tartiblariga halal yetadi yo ular mashaqqatga, qiyin ahvolga tushib qoladilar, deyilsa "Zarurat holatlarda noilojlikdan man' qilingan narsalarga ruxsat etiladi" degan qoidaga asosan hal etiladi (Bu qoida "Majallai ahkomi adliya"ning 17-moddasida o'z ifodasini topgan fiqhiy qoidadir). Agar o'sha ish haqiqatdan kishilar ehtiyoji bo'lmasa, u siz ham o'tadigan bo'lsa, u holda uni noto'g'ri deb hukm qilinib, kishilarning odatlanganliklari e'tiborga olinmaydi" [13:115] deyiladi.

Mahalliy odat, islom huquqida Yevropa yuristlarining amaliyotida tutgan o'rni kabi ma'lum bir hududda amal qilgan umummajburiy qoidalar sifatida tan olinadi [14:38]. Odat ko'pincha zarurat kelganda ta'qiqlangan va ruxsat etilmagan narsalarga yengillikni vujudga keltiradi.

"Majallai ahkomi adliya"da aks etgan "Zamonlar o'zgarishi bilan hukmlarning ham o'zgarishi inkor qilinmaydi" mazmundagi fiqhiy qoida asosan odatga asoslangan qonunlarga tegishlidir. Bu fiqhiy qoida islom huquqining rivojlanishi uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Chunki, Qur'on va sunnada hukmi kelmagan masalalarga faqihlarning ijihodlari orqali hukm

berilgan. Umuman, islom huquqining ushbu asosiy normalarini olimlar qat'iy, o'zgarmas va barcha hayotiy vaziyatlar uchun mos keluvchi deb hisoblaganlar. Lekin bu munosabatga ayrim mustasnolar bor, zero faqihlar favqulodda tasodifiy holatlar uchun fatvolar chiqarganlar. Ular odatlarga asoslanib, shu bilan birga odatning o'zini ham o'zgartirilishiga yo'l qo'yilgan. Bunday yondoshuv islom huquqining nazariyasi va amaliyoti uchun ijobiy ahamiyat kasb etgan, zero faqihlarga ma'lum qoidadan uzoqlashib, yangi hulq-atvor qoidasini yaratishga, Qur'on va Sunna doirasidan chiqmagan holda islom huquqini rivojlantirishga imkoniyat yaratgan [3:23].

«Majallai ahkomi adliya»da aks etgan fiqhiy qoidalar ta'sirida 1904 yil Qozon shahrida Muso Jorulloh Begiev tomonidan «Qavoidi fiqhiya» («Fiqhiy qoidalar») nomli asar yozildi. Ushbu asarda fiqhiy qoidalar soni 201 taga yetkazilib, mazmunini tushuntirish uchun keng sharhlar va misollar berilgan.

XULOSA

Fiqhiy qoidalarining ahamiyati shundaki, uzoq yillar davomida qozilar biror ish yuzasidan qaror chiqarayotganida faqat mazhab imomlaridan kelgan aniq hukmlardan foydalanishlari mumkin bo'lib, o'zlari mustaqil hukm chiqarish huquqiga ega emas edilar, lekin fiqhiy qoidalar ularga birmuncha kengroq vakolat beradi, ya'ni ular Qur'on, Sunna yoki imomlardan rivoyat qilingan masalalardan chiqarilgan fiqhiy qoidani mezon sifatida olib, ular orqali hukm chiqarish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Aytish joizki, ular bir masala bo'yicha aniq hukm bo'lmay, balki, yuzlab masalalarga tatbiq qilish mumkin bo'lgan islom tamoyillari hisoblanadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 30.
3. Сюкияйнен Л.Р. Структура мусульманского права // Мусульманское право (структура и основные институты). – М. 1984. – С. 33.
4. Doktor Asadullo Lutfiy. Qavoidi fiqhi madaniy. (Fuqarolik huquqi qoidalari). – Tehron: Bualisino universiteti, 2003. – B.14.
5. Abdulkarim Zaydon. Al-vajiz fi sharh al-qavoid al-fiqhiya. (Fiqhiy qoidalarining sharhi bo'yicha qisqacha kitob). – Bayrut: Ar-risola, 2003 -B.7.
6. Doktor Asadullo Lutfiy. Qavoidi fiqhi madaniy. – Tehron: Bualisino universiteti, 2003. – B. 15.
7. Doktor Abulhasan Muhammadiy. Qavoidi fiqh. – Tehron: Dod gustar, 2001. – B.12.
8. Jo'zjoniy A.Sh. Buxorolik buyuk faqih – Abu Zayd Dabusiy. – T.: Toshkent islom universiteti, 2007. – B. 23.
9. Jo'zjoniy A.Sh. Abu Zayd Dabusiy – ilmul-xilofa (qiyosiy huquqshunoslik) fanining asoschisi // Toshkent Islom Universitetining Ilmiy-tahliliy Axboroti. – Toshkent, 2002. №3 – B.8.
10. Doktor Abulhasan Muhammadiy. Qavoidi fiqh. – Tehron: Dod gustar, 2001. – B.12.
11. Al-Munjid fil a'lom. Mualliflar jamoasi. – Bayrut: Dor ul-Mashriq, 1987. – B.150.
12. Otifbek. Majallai ahkomi adliya sharhlari. T.1. – Istanbul: Dar saodat. 1904, – B. 11.
13. Abdulvaxxob Xalloy. Usulul fiqh. – T.: Movarounnahr, 1999. – B.115.
14. Остроумов Н.П. Мусульманское законоведение. – Т., 1909. – С. 38.